Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish.....1906
Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich

Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi".....1909
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi

Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....1914
X. N. Agaliyeva

Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati.....1920
Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna

Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash 1924
Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari.1930
Umarova Nafisa Ahmatilloyvna

11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari 1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura

Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish.....1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich

Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование 1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна

Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi 1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Употребление падежных окончаний на уроках русского языка 1947
Адилова Солияхон

STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari 1951
Boltayeva Go'zal Komilovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar 1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi

Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues 1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna

Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе 1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна

Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni 1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi

The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family 1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter

Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari 1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich

Voleybol mashg'ulotlarida funktsional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ... 1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich

18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari 1984
Djemilov Temur Rasimovich

Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri 1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna

Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari 1993
Usmanova Sevara Akmalovna

Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ... 1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi 2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li

Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari 2007
Istamova Dilnoza Norboyevna

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish 2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna

Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni 2015
Karimov Faxriddin Xurramovich

Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri 2019
Djabbarov Axror Islomovich

Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa 2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich

Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun 2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich

Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari 2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati 2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich

Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi 2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi

Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....2043
Kayumova Nazokat Rashitovna

Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari 2049
Kurbanov Baxrom

Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari 2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna

Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari 2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich

Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash 2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi

Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich

Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich

O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari 2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna

Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna

O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota–onaning liderlik maqomining roli.....2080
Odina Otajonova

Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari 2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari 2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li

Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...2092
Qodirova Feruza Usmanovna

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....2095
Sobirova Bonu Matkarimovna

Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati 2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna

Talabalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi.....2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna

Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish.....2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi

Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....2114
Y. T. Umarova

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar.....2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna

Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish 2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna

Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli 2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi

Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati 2130
Sodiqov Murod Naimovich

Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi 2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich

"Arba'in" asarida qit'alarning vazniy xususiyatlari....2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna

Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini tarbiyalash....2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna

Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o'yinga yo'naltirilgan mashg'ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish....2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich

Oliy ta'lim raqobatbardoshligining ta'lim sifatini oshirishdagi roli....2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich

Sharq donoligi va zamonaviy ta'lim uyg'unligi....2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna

The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language....2165
Babayeva Komila Rishatovna

Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san'atni o'rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida)....2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar....2172
Do'schanova Nafosat Norimonovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari....2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari....2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi

Dialekt va adabiy til: o'zaro munosabat....2183
Jumanazarova Guljahon

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o'rgatishda interaktiv ta'lim texnologiyalar....2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi

Pedagogik nizolarni hal etishda bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari....2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi

Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish....2194
Shamsiyeva M. R.

O'smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari....2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi

Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки....2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ZARURATI

Ashirov Abdurashid Ravshanovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyati, kasbiy ta'lim jarayonida faol o'quv usullarini joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quvchi shaxsini markazga qo'yish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasb, ta'lim, o'quv, bilish, faollashtirish, innovatsiya, fikrlash, kompetensiya, faoliyat, o'quvchi, tadqiqot, natija, sifat, ijod, yondashuv, shakllantirish.

Abstract: The article scientifically substantiates the scientific and theoretical foundations and practical importance of activating the educational and cognitive activity of students in the professional education system, the introduction of active teaching methods in the process of professional education, the use of innovative pedagogical technologies and the need to put the student's personality in the center.

Key words: profession, education, training, cognition, activation, innovation, thinking, competence, activity, student, research, result, quality, creativity, approach, formation.

Аннотация: В статье научно обоснованы научно-теоретические основы и практическая значимость активизации учебно-познавательной деятельности студентов в системе профессионального образования, внедрения активных методов обучения в процесс профессионального образования, использования инновационных педагогических технологий и необходимости ставить во главу угла личность студента.

Ключевые слова: профессия, образование, тренинг, познание, активизация, инновация, мышление, компетентность, активность, студент, исследование, результат, качество, креативность, подход, формирование.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson kapitali, ayniqsa, yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan va ijodkor shaxslarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobat muhitining kuchayishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ana shunday sharoitda kasbiy ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi – faqatgina bilim berish emas, balki o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularda mustaqil izlanish, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchi markazidan o'quvchi markaziga o'tishni, ya'ni ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini asosiy o'ringa qo'yishni talab etmoqda. Bu esa o'quvchilarning bilimni tayyor holda qabul qilibgina qolmay, uni mustaqil izlanish, tajriba, mulohaza va tahlil orqali egallashlarini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan "o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish" tushunchasi zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish – bu o'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokini, qiziqishini, ijodiy fikrlashini va mustaqil bilim olish qobiliyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayondir. U faqatgina bilim olishni emas, balki bilimni izlash, uni qayta ishlash, yangi vaziyatlarda qo'llash malakasini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu bois kasbiy ta'lim tizimida ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etish – raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi [12].

Shu bilan birga, amaliyotda ko'plab muammolar ham mavjud. Ayrim kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni hali ham an'anaviy ma'lumot berish shaklida tashkil etilmoqda, bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faol bilim olish jarayonini cheklab qo'yadi. Bunday holatda o'quvchilar bilimni reproduktiv tarzda o'zlashtiradi, ya'ni tayyor axborotni eslab qolish bilan cheklanadi. Bu esa ularning keyingi kasbiy faoliyatida tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv va muammo yechish ko'nikmalarining yetishmasligiga olib keladi.

Bugungi global axborotlashuv va raqobat muhitida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashning asosiy sharti – bilimli, kasbiy jihatdan malakali va ijodkor inson kapitalini shakllantirishdir. Ta'lim tizimida esa bu vazifa, ayniqsa, kasbiy ta'lim tashkilotlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Kasbiy ta'lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni mustaqil izlanishga, tahlil qilishga va amaliyotda bilimni tatbiq etishga yo'naltirishi lozim.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida ta'lim jarayoni "o'qituvchi markazidan" "o'quvchi markaziga" o'tmoqda. Bu esa o'quvchi faolligini oshirish, uning motivatsiyasini kuchaytirish va bilish jarayonini faollashtirishni taqozo etadi. "Faollashtirish" atamasi bu yerda o'quvchining ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi, bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki yaratuvchi sifatida faoliyat yuritishini anglatadi [6].

Kasbiy ta'lim muassasalarida bu jarayonni samarali tashkil etish nafaqat bilim sifatiga, balki kelgusidagi mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash, ularni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotga tatbiq etilganda, ta'lim jarayonining interaktivligi, ijodkorlik muhiti va o'quvchilarning shaxsiy faolligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish jarayonini tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** – mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar, pedagogik nazariyalar tahlil qilindi.
2. **Qiyosiy tahlil metodi** – an'anaviy ta'lim modeli va faol ta'lim modeli o'zaro qiyos qilindi.
3. **Pedagogik kuzatuv va suhbat metodi** – kasbiy ta'lim muassasalaridagi amaliy ta'lim jarayonlari o'rganildi. Test va anketa so'rovlari – o'quvchilarning bilish faolligi, o'quv motivatsiyasi va faol ishtirok darajasi baholandi.
4. **Tajriba-sinov ishi** – faollashtiruvchi ta'lim texnologiyalari (muvofiqlashtirilgan guruhli ish, keys-metod, klaster, "aksariyat fikrini top" kabi usullar) qo'llanilib, ularning natijalari tahlil qilindi.

Shunday ekan, kasbiy ta'lim tizimida o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uni amaliy ta'lim jarayoniga samarali joriy etish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi:

1. Nazariy-tahliliy metodlar va ularni qo'llash bosqichida mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, L.S. Vigotskiyning "faol bilish faoliyati" nazariyasi [3], Davidov [3] va Elkoninning [13] "rivojlantiruvchi ta'lim" konsepsiyasi hamda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari asos qilib olindi. Bu tahlillar kasbiy ta'lim jarayonida faollashtirishning nazariy poydevorini aniqlash, faol ta'limning mohiyati va qonuniyatlarini belgilash imkonini berdi.
2. Qiyosiy tahlil metodi bosqichida quyidagilar qo'llanildi:

- keys-metod (kasbiy muammolarni yechish bo'yicha);
- "intellekt-karta" va "klaster" usuli;
- jamoaviy ijodiy loyihalar;
- muammoli vaziyatli bahslar;
- "fikrlar zanjiri" va "aksariyat fikrini top" strategiyalari [11].

Har bir dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, ijodiy yondashuvi va bilim o'zlashtirish darajasi kuzatilib, maxsus baholash mezonlari orqali aniqlandi.

3. Pedagogik kuzatuv va suhbat metodi va uni qo'llashda o'quvchilarning bilimga bo'lgan munosabati, o'quv jarayonidagi ishtiroki va motivatsiya darajasini o'rganish uchun maxsus anketa so'rovlari ishlab chiqildi. Anketalar kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazildi. Anketa savollari quyidagi yo'nalishlarda tuzildi:

- o'quv jarayonidagi faol ishtirok darajasi;
- darsda innovatsion usullar qo'llanilish holati;
- bilim olish motivatsiyasi va ichki qiziqish darajasi;
- o'qituvchi faoliyatining rag'batlantiruvchi ta'siri.

4. Tajriba-sinov ishi bosqichida tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali faollashtiruvchi usullarning ta'siri aniq statistik ko'rsatkichlar bilan isbotlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishning ilmiy-nazariy asoslari chuqur tahlil qilinib, quyidagi nazariy qonuniyat va xulosalarga erishildi.

"O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish" – bu shunchaki o'quvchining bilim olish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish emas, balki uning bilish jarayonini ichki motivatsiya, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash orqali rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik tizimdir. Bu tushuncha to'rtta asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

1. **Motivatsion komponent** - o'quvchining bilim olishga ichki ehtiyoji va qiziqishini kuchaytirish.
2. **Kognitiv komponent** - bilish jarayonida intellektual faollik, tahlil, solishtirish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.
3. **Kreativ komponent** - yangi bilim yaratish, muammolarga nostandart yondashish va amaliyotda yangicha yechim topish qobiliyatini shakllantirish.
4. **Refleksiv komponent** - o'z faoliyatini baholash, xulosa chiqarish.

Bu modelda faollashtirishning mohiyati shundaki, o'quvchi ta'lim jarayonida obyekt emas, balki subyekt sifatida qatnashadi. Shuningdek, ta'limning natijasi faqat bilim miqdori bilan emas, balki uning qo'llanish qobiliyati, ya'ni "bilishning faol sifati" bilan baholanadi.

Kasbiy ta'limning spetsifikasi – bilimni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq holda o'zlashtirishdir. Shu bois o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish nazariy jihatdan faol ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalariga tayanadi:

1. Faol ta'lim nazariyasi (Dj.Dyui [1], A.Bandura [2], L.S.Vigotskiy [3]): bu nazariyaga ko'ra, inson bilimni faqat faol ishtirok va tajriba orqali o'zlashtiradi. Faol ta'limning markazida tajriba, mulohaza va ijtimoiy hamkorlik turadi.
2. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi (Davidov [5], Elkonin [13], Zankov [7]): o'quvchi faol bilish jarayonida yangi bilim yaratadi, "muammoli vaziyat" orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu nazariyada bilish faolligi – shaxsning intellektual o'sishining asosiy manbai hisoblanadi.
3. Kompetensiyaviy yondashuv: zamonaviy kasbiy ta'lim faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma va shaxsiy kompetensiyalar majmuasini shakllantirishni ko'zlaydi. Bu yondashuvda faollashtirish bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, nazariy jihatdan faollashtirish jarayoni – bu faqat didaktik usul emas, balki shaxs rivojlanishining psixo-pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

1-jadval: **O'quv-bilish faolligining nazariy tuzilishi**

Komponent	Ifoda shakli	Pedagogik ta'sir mexanizmi
Motivatsion	Qiziqish, ehtiyoj, maqsadga intilish	Ichki rag'bat, kasbiy qiziqishni uyg'otish
Bilish (kognitiv)	Tahlil, sintez, muqoyasa, umumlashtirish	Muammoli savollar, keyslar, tadqiqot vazifalari
Ijodiy	Yangi g'oya yaratish, muammo yechimi	Topshiriqlarni ijodiy interpretatsiya qilish, loyiha ishi
Refleksiv	O'z faoliyatini baholash, xulosa chiqarish	O'z-o'zini baholash va jamoaviy tahlil usullari

Kasbiy ta'limda faollashtirishning nazariy qonuniyatlari shakllantirildi:

1. **Faoliyat qonuniyati:** o'quvchining bilimni faol egallashi faqat faol ishtirok, muloqot va amaliyot orqali amalga oshadi.
2. **Motivatsiya qonuniyati:** o'quv-bilish faolligi darajasi bilish motivlarining kuchiga proporsionaldir. Ya'ni ichki qiziqish qanchalik kuchli bo'lsa, bilim olish jarayoni shunchalik samarali kechadi.

3. **Refleksiya qonuniyati:** o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati – bilish faolligining rivojlanishida asosiy omildir.
4. **Ta'lim muhiti qonuniyati:** o'quv muhitida erkinlik, ijodkorlik va mulohaza uchun imkoniyat yaratilganda, o'quvchi bilish jarayonining subyektiga aylanadi.
5. **Interaktivlik qonuniyati:** ta'limda muloqot va hamkorlik necha barobar yuqori bo'lsa, bilish faolligi shuncha barqaror va chuqur shakllanadi.

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish jarayoni uchta asosga tayanadi:

1. Psixologik asos: shaxsning bilish ehtiyoji va ichki motivatsiyasi;
2. Pedagogik asos: faol ta'lim usullari va interfaol muhit;
3. Didaktik asos: bilimni amaliyotga tatbiq etish va kompetensiyalarni rivojlantirish.

Bu esa o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol yaratuvchiga aylantirishga xizmat qiladi.
Shunga ko'ra:

1. O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish – shaxsning bilish jarayonini psixologik va pedagogik jihatdan uyg'unlashtiruvchi tizimli jarayondir.
2. Uning asosiy mazmuni – bilimni yaratish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishdan iborat.
3. Faol ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta'limda faollashtirishning nazariy poydevorini tashkil etadi.
4. Faollashtirish jarayonida bilim faolligi motivatsiya, ijodkorlik va muloqot bilan uyg'un holda shakllanadi.
5. Bu jarayon natijasida shaxs faqat "o'quvchi" emas, balki "tadqiqotchi", "ijodkor", "ijtimoiy faol subyekt" sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoniga faollashtiruvchi metodlarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilish faolligi oshdi, o'quv mag'ulotlari sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi va ularning mustaqil bilim olish qobiliyati mustahkamlandi.

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini keskin oshiradi. Bu jarayonda asosiy urg'u – o'quvchi shaxsiga, uning ehtiyoj va imkoniyatlariga qaratilishi lozim.

Faol ta'lim texnologiyalari – bu nafaqat ta'limning shaklini, balki uning mazmunini ham o'zgartiradi. Ular orqali o'quvchilar bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni qayta ishlovchi, yaratuvchi, ijodkor shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki (Vigotskiy [3], Davidov [5], Zimnyaya [8], P.Y. Galperin [4] va boshqalar), bilish faolligini faollashtirishning asosiy mezoni – o'quvchining mustaqil fikrlashi, refleksiya qilish qobiliyati va bilimni yangi sharoitlarda qo'llash qobiliyatidir.

O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishni rivojlantirish, ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalarida, juda muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnat bozori talab qilayotgan mutaxassis – faqat ma'lumotga ega shaxs emas, balki amalda ishlay oladigan, innovatsion fikrlaydigan va mustaqil yechim topa oladigan kadrdir.

Shu boisdan ta'lim jarayonida interaktiv darslar, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv faoliyatlari, keys-metod, proyekt usuli, klaster va intellekt-karta kabi faol usullardan tizimli ravishda foydalanish zarur.

Kasbiy ta'limda o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish nafaqat ta'lim sifatiga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Faollashtirish jarayonining ilmiy asosi L.S. Vigotskiyning "faol bilish faoliyati" konsepsiyasiga bog'liq bo'lib, unda ta'lim shaxsning rivojlanishida "yaqin rivojlanish zonasi"ni faollashtiradi [3]. Ya'ni o'quvchi muammoli vaziyatni mustaqil hal qilish jarayonida bilimni faqat qabul qilmaydi, balki uni qayta yaratadi. Shuningdek, Davidov [5] va Zankov [7] ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi faqat faol bilish faoliyati asosida amalga oshishini isbotlagan.

Bu nazariy qarashlar asosida tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, faol ta'lim jarayonida:

- bilimni o'zlashtirish emas, uni anglash va qayta ishlash ustuvor bo'ladi;
- o'quvchi faol subyekt sifatida shakllanadi;
- bilim motivatsiya bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi.

Qo'llanilgan interaktiv usullar – keys-metod, klaster, intellekt-karta, debat va loyiha faoliyati – o'quvchilarda "tashabbuskor bilish"ni shakllantirdi. Ushbu usullar bilimni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab, kasbiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini mustahkamladi [9].

Masalan, keys-metodda o'quvchilar haqiqiy ishlab chiqarish muammosini yechish jarayonida bilimni amalda qo'llash imkoniga ega bo'ldilar. Bu ularda kasbiy mas'uliyat va ijodkorlik hissini kuchaytirdi.

Faollashtiruvchi ta'lim usullarini qo'llash uchun quyidagi shartlar muhim ahamiyatga ega [10]:

- dars jarayonida o'quvchi markaziy subyekt sifatida qaralishi;
- ta'lim maqsadlari bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilishi;
- o'qituvchi faoliyati rahbarlik emas, balki yo'naltiruvchi funksiyani bajarishi;
- ta'lim muhitida erkin mulohaza va fikr almashish imkoniyati yaratilishi.

Bunday yondashuv orqali kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilish motivatsiyasi, ijodiy potensiali va mustaqil izlanish qobiliyati shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish – ta'lim sifatini oshirishning, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning va shaxsni ijodkorlik ruhida tarbiyalashning asosiy omilidir.

Metodlar va natijalar asosida aniqlandiki, faollashtiruvchi ta'lim usullarini joriy etish – kasbiy ta'limda shaxs rivojlanishini ta'minlaydigan strategik yo'nalishdir. U o'quvchilarda bilimni anglash, qo'llash va yaratish qobiliyatini mustahkamlaydi, natijada raqobatbardosh va ijodiy mutaxassislar yetishib chiqadi. Shuningdek:

- faol ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini jonlantiradi,
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va izlanish qobiliyatini rivojlantiradi,
- motivatsiyani oshiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Shu bois, kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini faollashtirishga qaratilgan metodik tizimni ishlab chiqish va amalga joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
2. Бандура, А. Теория социального научения / А. Бандура. – Санкт-Петербург: Евразия, 2000. – 320 с.
3. Выготский, Л. С. Мышление и речь / Л. С. Выготский. – Москва: Педагогика, 1996. – 350 с.
4. Гальперин, П. Я. Введение в психологию обучения / П. Я. Гальперин. – Москва: Изд-во МГУ, 1985. – 188 с.
5. Давыдов, В. В. Проблемы развивающего обучения / В. В. Давыдов. – Москва: Педагогика, 1986. – 240 с.
6. Dewey, J. Experience and Education / J. Dewey. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
7. Занков, Л. В. Обучение и развитие / Л. В. Занков. – Москва: Педагогика, 1975. – 256 с.
8. Зимняя, И. А. Психология обучения школьников / И. А. Зимняя. – Москва: Просвещение, 2003. – 320 с.
9. Полат, Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Е. С. Полат. – Москва: Академия, 2008. – 272 с.
10. Xoshimov, Q., Yodgorov, N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti / Q. Xoshimov, N. Yodgorov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 412 b.
11. Xaydarov, A., Bobomurodov, X. Interaktiv ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot / A. Xaydarov, X. Bobomurodov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
12. Шамов, А. Н. Активизация познавательной деятельности учащихся / А. Н. Шамов. – Москва: Просвещение, 1998. – 210 с.
13. Эльконин, Д. Б. Психология обучения младшего школьника / Д. Б. Эльконин. – Москва: Просвещение, 1974. – 198 с.

13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.